

## QO‘QON XONLIGIDA TA‘LIM TIZIMINI SAQLAB TURGAN VAQF TIZIMI

**Jamoliddinov Bobur Bahodir o‘g‘li**

**Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi magistranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20018919>

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi Farg‘ona vodiysida Qo‘qon xonligi davrida shakllangan an‘anaviy ta‘lim tizimi — maktab va madrasalarning ijtimoiy-ma‘naviy hamda iqtisodiy asoslari, ayniqsa vaqf tizimi bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilinadi. Vaqf mulklari, ularning boshqaruvi va ta‘lim muassasalarini moliyaviy ta‘minlashdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, Rossiya mustamlakachiligi davrida vaqf tizimiga qo‘yilgan cheklovlar natijasida ta‘lim muassasalarining zaiflashuvi ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Farg‘ona vodiysi, vaqf mulklari, Qo‘qon xonligi, an‘anaviy maktab, mutavalli, mustamlakachilik, Rossiya imperiyasi, madrasa

Farg‘ona vodiysi tarixan Markaziy Osiyoning muhim ilmiy-ma‘rifiy hududlaridan biri sifatida shakllanib, unda maktab va madrasalar jamiyatning ma‘naviy, madaniy hamda intellektual taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan. Ayniqsa, Qo‘qon xonligi davrida ta‘lim tizimi keng tarmoqlangan bo‘lib, u nafaqat diniy bilimlarni o‘rgatish, balki jamiyatda axloqiy qadriyatlar, adabiy tafakkur va ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qilgan. Bu davrda ilm-fan va dunyoviy bilimlar davlat va xalq manfaatlarining mustahkam poydevori sifatida qaralib, ta‘lim tizimini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Xonlikda faoliyat yuritgan an‘anaviy maktablar mahalliy aholining ma‘naviy hayotida muhim o‘rin tutgan. Darhaqiqat, maktab va madrasalarda berilayotgan ta‘lim mazmuni vaqt o‘tishi bilan yangi davlat va jamiyat ehtiyojlariga to‘liq mos kelmay qolgan bo‘lsa-da, ular o‘z davri sharoitida salmoqli vazifani bajargan. Xususan, bu ta‘lim muassasalari yosh avlodni boshlang‘ich savod bilan ta‘minlash, ularga diniy bilimlar va axloqiy tarbiya berish, shuningdek, ularni jamiyat hayotiga moslashtirishda muhim rol o‘ynagan. Bundan tashqari, madrasalar mahalliy boshqaruv tizimi hamda ta‘lim sohasi uchun zarur bo‘lgan mutaxassislarini tayyorlab bergan. Shu bilan birga, maktab va madrasalar ko‘plab yoshlarni o‘z bag‘riga jalb etib, ularning vaqtini mazmunli tashkil etgan va turli salbiy yo‘llarga kirib ketishining oldini olishda ham muhim ijtimoiy vazifani bajargan.

Vaqf tushunchasi arab tilida “to‘xtatib qo‘yish” yoki “muayyan maqsad yo‘lida saqlab turish” ma‘nolarini ifodalaydi (ko‘plik shakllari “avqof”, “vukuf”, unga yaqin atama sifatida “xubus” ham qo‘llanadi)<sup>1</sup>. Ushbu institutning ildizlari islomning dastlabki davrlariga borib taqalsa-da, X asrgacha bo‘lgan vaqflar haqida manbaviy ma‘lumotlar nihoyatda cheklangan. O‘rta Osiyo hududida esa vaqf amaliyoti XI asrda, qoraxoniylar hukmronligi davrida aniqroq shakllangan bo‘lib, bu jarayon Ibrohim Tamg‘achxon nomi bilan bog‘liq vaqfnoma orqali ma‘lumdir<sup>2</sup>. Aynan shu davrdan boshlab vaqf tizimi mintaqa jamiyatining ijtimoiy-siyosiy hamda ma‘naviy hayotida sezilarli o‘rin egallay boshlagan.

O‘rta asrlarda vaqf — bu asosan madrasa, masjid, mozar va qorixonalar kabi diniy-ma‘rifiy muassasalarni ta‘minlash uchun ajratilgan mulk bo‘lgan. Bu mulk yer, bino yoki daromad manbai ko‘rinishida bo‘lishi mumkin<sup>3</sup>. Vaqfni rasmiylashtiruvchi hujjat esa “vaqfnoma” deb

<sup>1</sup> Большаков О.Г. Вақф// Ислам. Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – С.44.

<sup>2</sup> Alixojiyev M.O. Qo‘qon xonligining madaniy hayotida maktab va madrasalarning tutgan o‘rni (1800-1876 yy.) (Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya) - Toshkent, 2012 – B.97.

<sup>3</sup> O‘sha manba B.98.

atalib, unda mulkning kim tomonidan, qaysi maqsadga va qanday shartlar bilan ajratilgani aniq ko'rsatib berilgan. Vaqf tizimi madrasalarning nafaqat mavjudligini, balki barqaror faoliyat yuritishini ta'minlagan asosiy iqtisodiy mexanizm hisoblangan. Xonlar, amirlar hamda badavlat savdogarlar tomonidan ajratilgan yer maydonlari, bog'lar, savdo do'konlari va boshqa daromad keltiruvchi mulklar vaqf sifatida rasmiylashtirilib, ularning foydasi aniq maqsadlarga yo'naltirilgan. Xususan, bu mablag'lar mudarrislar mehnatiga haq to'lash, talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash, madrasa binolarini saqlash va ta'mirlash kabi ehtiyojlarni qoplashga xizmat qilgan<sup>4</sup>. Shu jihatdan vaqf tizimi madrasalarni davlat moliyasidan mustaqil holda faoliyat yuritishiga imkon bergan. Natijada ta'lim muassasalari o'zining ichki iqtisodiy asosiga ega bo'lib, uzoq muddat davomida uzluksiz ishlash imkoniyatini qo'lga kiritgan. Bu esa o'z navbatida ilm-fan rivoji, malakali mutaxassislar tayyorlash va jamiyatda ma'naviy muhitni barqaror saqlashda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Vaqf tizimi faqat mulk ajratish bilan cheklanib qolmay, balki aniq boshqaruv mexanizmiga ham ega bo'lgan. Mutavalli vaqf mulklarini nazorat qiluvchi va ularning daromadini to'g'ri taqsimlovchi mas'ul shaxs sifatida faoliyat yuritgan. Uning vazifasiga yer, do'kon yoki boshqa mulklardan tushadigan daromadlarni yig'ish, ularni madrasa ehtiyojlariga - mudarrislar maoshi, talabalar ta'minoti hamda binolarni saqlash ishlariga yo'naltirish kirgan. Har yili qoziga hisobot berish majburiyati esa ushbu tizimda ma'lum darajada nazorat va hisobdorlik mavjud bo'lganini anglatadi<sup>5</sup>. Shu bilan birga, mutavallilik lavozimining ko'p hollarda irsiy tarzda o'tishi vaqf boshqaruvida barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan bo'lsa-da, ayrim hollarda bu holat nazoratning sustlashuvi yoki daromadlardan noto'g'ri foydalanish ehtimolini ham yuzaga keltirgan. Demak, vaqf tizimi o'z davri uchun mukammal iqtisodiy va tashkiliy mexanizm bo'lganiga qaramay, uning samaradorligi ko'p jihatdan mutavallining halolligi va boshqaruv qobiliyatiga bog'liq bo'lgan.

Vaqf tizimida asosiy boshqaruv huquqi bevosita vaqf egasi — voqif qo'lida bo'lgan. Ya'ni, kimni mutavalli etib tayinlash, shuningdek vaqf mulkidan tushadigan daromadlarni qanday va qaysi yo'nalishlarda taqsimlash masalalari voqifning ixtiyoriga bog'liq tarzda hal etilgan<sup>6</sup>. Bu esa vaqf tizimining muayyan darajada shaxsiy tashabbus va irodaga asoslanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bunday yondashuv vaqf mulkini aniq maqsadlar yo'lida yo'naltirish imkonini bergan bo'lsa-da, boshqaruvning markazlashmaganligini ham anglatadi. Natijada vaqf faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan voqif tanlagan mutavallining mas'uliyati va halolligiga bevosita bog'liq bo'lgan.

Vaqf tizimi faqat mulk ajratish bilan cheklanib qolmay, balki aniq boshqaruv mexanizmiga ham ega bo'lgan. Mutavalli vaqf mulklarini nazorat qiluvchi va ularning daromadini to'g'ri taqsimlovchi mas'ul shaxs sifatida faoliyat yuritgan. Uning vazifasiga yer, do'kon yoki boshqa mulklardan tushadigan daromadlarni yig'ish, ularni madrasa ehtiyojlariga - mudarrislar maoshi, talabalar ta'minoti hamda binolarni saqlash ishlariga yo'naltirish kirgan<sup>7</sup>. Har yili qoziga hisobot berish majburiyati esa ushbu tizimda ma'lum darajada nazorat va hisobdorlik mavjud bo'lganini anglatadi. Shu bilan birga, mutavallilik lavozimining ko'p hollarda irsiy

<sup>4</sup> G'ulyamov Z. Xonlik davrida vaqf mulki va ta'lim muassasalari // O'zbekiston tarixi. – 2007. – №2. – B. 45.

<sup>5</sup> Xasanov B. Vaqf hujjatlari va madrasa iqtisodi // O'zbekiston tarixi. – 2016. – №3. – B. 54.

<sup>6</sup> Alixojiyev M.O. Qo'qon xonligining madaniy hayotida maktab va madrasalarning tutgan o'rni (1800-1876 yy.) (t.f.n. diss.) - Toshkent, 2012 – B.99.

<sup>7</sup> Xasanov B. Vaqf hujjatlari va madrasa iqtisodi // O'zbekiston tarixi. – 2016. – №3. – B. 54.

tarzda o'tishi vaqf boshqaruvida barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan bo'lsa-da, ayrim hollarda bu holat nazoratning sustlashuvi yoki daromadlardan noto'g'ri foydalanish ehtimolini ham yuzaga keltirgan.

Vaqf tizimi doimo barqaror daromad bera olmagan. Bunga quyidagilar sabab bo'lgan. Tabiiy omillar (qurg'oqchilik), iqtisodiy pasayish (savdo hajmining kamayishi) hamda inson omili (mutavallining daromadni to'liq oshkor qilmasligi) natijasida ayrim madrasalarda mablag' yetishmovchiligi yuzaga kelgan. Shunday vaziyatlarda mudarrislar o'rindoshlik asosida qozi vazifasida ishlab ehtiyojlarini qondirganlar. Talabalar esa kotiblik, kitob ko'chirish yoki jismoniy mehnat qilish asosida o'z chiqimlarini qoplaganlar. Yuqori bosqich talabalari yozgi tanaffus davrida qishloq joylarda va ko'chmanchilar ovullarida imom yoki maktab o'qituvchisi lavozimida ishlab, qo'shimcha daromad topganlar<sup>8</sup>. Natijada mudarrislar maoshi va talabalar ta'minoti to'liq qoplanmay, harajatlarni qoplash uchun ta'limdan boshqa ishlar bilan mashg'ul bo'lish ta'lim jarayonining sifati va barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar vaqf daromadlarining taqsimoti mutavalliboshi tomonidan tartibga solinib, u umumiy nazoratni amalga oshirgan. Biroq bu lavozim general-gubernator K.P. Kaufman farmoyishi bilan bekor qilindi<sup>9</sup>. Mazkur choradan ko'zlangan asosiy maqsad vaqf mablag'larining sarflanishi ustidan an'anaviy nazoratni zaiflashtirish, madrasa ichki muhitida kelishmovchiliklarni kuchaytirish hamda shu orqali ularning jamiyatdagi nufuzini pasaytirish edi. Natijada vaqf daromadlarini taqsimlash jarayoni tartibsiz holga kelib, ayrim hollarda mutavalliyalar va mudarrislar o'rtasida mablag'larni bo'lish masalasida nizolar yuzaga kela boshladi. Bunday vaziyat dastlab imperiya ma'murlarining manfaatlariga mos tushganligi sababli ular bu jarayonlarga aralashmaslikni ma'qul ko'rgan. Ammo vaqt o'tishi bilan nizolar soni ortib borgach, ma'muriyat mutavalliyalar, mudarrislar va talabalar o'rtasidagi munosabatlarga faol aralasha boshladi. Shu tariqa, mutavalliboshi lavozimining tugatilishi madrasalarning ijtimoiy obro'sini keskin tushirib yubormagan bo'lsa-da, imperiya ma'murlariga ta'lim tizimi ustidan yanada kengroq nazorat o'rnatish imkonini berdi. Xususan, ular mudarrislarini tayinlash va lavozimdan ozod etish, shuningdek mutavallilar faoliyatini to'liq boshqarish vakolatini qo'lga kiritdilar.

Rus ma'muriyati maktab va madrasalarni bevosita yopish yo'lini tanlamagan, balki ularning asosiy tayanchi bo'lgan vaqf tizimini cheklash orqali bilvosita ta'sir ko'rsatgan<sup>10</sup>. Vaqf mulklaridan keladigan daromadlarning qisqarishi natijasida ta'lim muassasalari moddiy jihatdan zaiflashib, ularning faoliyati sekin-asta susaygan.

1876-yildan boshlab Farg'ona viloyatida rus ma'muriyati mahalliy ta'lim muassasalari faoliyatini tizimli ravishda ro'yxatga olish va nazorat ostiga olish siyosatini yo'lga qo'ydi<sup>11</sup>. Maqsad vaqf mulklarini qisqartirish bo'lgan. Bu jarayon maktab va madrasalarning ichki hayoti, moddiy ta'minoti hamda faoliyat yo'nalishlariga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularni ma'muriy nazorat doirasiga kiritdi.

<sup>8</sup> Azimbayev M. Turkiston general-gubernatorligidagi madrasalar tarixiga doir. // O'zbekiston tarixi. – 2015. – №4. – B.77.

<sup>9</sup> Махмудова Н. Б. Система мусульманского образования в Туркестанском крае и ее отражение в материалах отчетов ревизии сенатора К.К. Палена // Вухоро Davlat universiteti ilmiy axboroti, 2014. № 1 (53). 105-6.

<sup>10</sup> Ergashev T.E. O'rta Osiyoda mustamlaka siyosati va ta'lim. // O'zbekiston tarixi. – 2001. – №3. – B. 34.

<sup>11</sup> Остроумов Н.П. Исламоведение. Туркестан и его история. – Ташкент: Изд-во Турк. кружка любителей археологии, 1914. – С. 112

1886-yil 17-noyabrda qabul qilingan imperiya qaroriga muvofiq, Turkiston o'lkasidagi vaqf xo'jaliklariga tegishli hujjatlarni 1887-yil 1-iyulga qadar tekshirish va tartibga solish haqida maxsus ko'rsatma berildi. Keyinchalik Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizomda ushbu vazifani bajarish viloyatlar boshqarmasi zimmasiga yuklatilgani alohida modda sifatida kiritildi<sup>12</sup>. Taftish natijalariga ko'ra ko'plab vaqflar bekor qilingan. Bunga sabab vaqf hujjatlariga nisbatan qat'iy huquqiy talablar joriy etilgan. Ya'ni, vaqfnoma haqiqiy hisoblanishi uchun unda hukmdor yoki qozixona muhrining mavjudligi, shuningdek vaqf qilinayotgan mulkning aniq chegaralari va rasmiy sanasi ko'rsatilishi shart bo'lgan. Aks holda, bunday hujjatlar yuridik kuchga ega emas deb topilgan. Bu tartib vaqf mulklari ustidan nazoratni kuchaytirish va ularni qayta ko'rib chiqish orqali qisqartirish imkonini ham yaratgan. Bu vaqflarda istiqomat qilayotgan aholidan soliqlar o'lna boshlanishi o'lka ma'muriyatining o'z manfaatlarini ko'zlab amalga oshirgan choralaridan biri bo'lib, uning asosida musulmonlarning hayotining muhim qismi sanalgan maktab, madrasa hamda masjidlariga tegishli vaqf mulklarini ro'yxatga olish masalasi yotgan edi. Xususan, bu jarayon katta yer maydonlari, ko'plab savdo do'konlari va boshqa turdagi ko'chmas mulklarni hisobga olish orqali ularni nazorat ostiga olishga qaratilgan.

Yangi vaqf mulklarining shakllanishi Turkiston general-gubernatorning ruxsatini talab qilardi. Bu vaqf tizimining erkin rivojlanishini cheklab qo'ydi va uni to'liq ma'muriy nazoratga oldi. Keyinchalik, ushbu siyosat natijasida rus tadbirkorlari vaqfga tegishli bo'lgan yer uchastkalarini nisbatan arzon narxlarda sotib olish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Vaqf mulklarini amaliy boshqarish mutavallilar qo'lida ekanligini to'liq anglagan viloyat ma'muriyati bu tizimga bevosita ta'sir ko'rsatishga harakat qildi. Shu nuqtai nazardan, V.P. Nalivkin o'z hisobotida barcha mutavallilar ustidan general-gubernator nazoratini o'rnatishni, ularni tayinlash uchun maxsus tartibni joriy etishni va har bir vaqf mulkidagi mutavallilar sonini bittadan ko'p bo'lmasligini taklif qildi. Bu choralar asosan vaqf tizimini ichkaridan nazorat qilish, uning mustaqilligini cheklash va moliyaviy resurslari ustidan nazoratni o'rnatishga qaratilgan edi. Natijada, vaqf tizimi asta-sekin an'anaviy, mustaqil iqtisodiy mexanizm sifatidagi xususiyatini yo'qotdi.

Shu bilan birga, an'anaviy ta'lim tizimi — maktab va madrasalar — mustamlaka sharoitida o'z mohiyatini to'liq yo'qotmagan holda, yangi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga moslashishga intildi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida bu moslashuv jarayoni yaqqol namoyon bo'lib<sup>13</sup>, ta'lim muassasalari bir tomondan nazorat ostida faoliyat yuritgan bo'lsa, ikkinchi tomondan o'z an'anaviy vazifalarini saqlab qolishga harakat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Qo'qon xonligi davrida Farg'ona vodiysi shakllanib rivojlanayotgan ta'lim tizimi nafaqat diniy bilimlarni saqlash, balki mahalliy jamiyatda axloqiy qadriyatlar, adabiy tafakkur hamda ijtimoiy ongning shakllanishida markaziy o'rin egallagan. Xonlikdagi an'anaviy maktab va madrasalar yosh avlodni boshlang'ich savod bilan ta'minlash, ularni axloqiy tarbiya berish, jamiyat hayotiga integratsiya qilish, shuningdek, mahalliy boshqaruv hamda ta'lim sohasi uchun professional mutaxassislarini tayyorlash funksiyasini bajarib kelgan. Bu jarayonda vaqf tizimi ta'lim muassasalarining moliyaviy tayanchi sifatida hal qiluvchi rol o'ynagan, ya'ni yer, bog', savdo do'konlari kabi mulk daromadlari mudarrislar maoshi, talabalar

<sup>12</sup> Alixojiev M.O. Qo'qon xonligining madaniy hayotida maktab va madrasalarning tutgan o'rni (1800-1876 yy.) (t.f.n. diss.) - Toshkent, 2012 – B.116

<sup>13</sup> Sartori P. *Visions of Justice: Shari'a and Cultural Change in Russian Central Asia*. – Leiden: Brill, 2016. – P. 78

ta'minoti, binolarni saqlash va ta'mirlash kabi ehtiyojlarga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, vaqf tizimi faqat mulk ajratish bilan cheklanib qolmay, balki mutavalli tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv mexanizmi, shuningdek, har yili qoziga hisobot berish orqali nazorat va hisobdorlik shaklida ham tashkil topgan. Biroq, mutavallilik lavozimining ko'p hollarda irsiylashtirilishi, iqtisodiy pasayish, tabiiy ehtimollar va inson omili (daromadlarni to'liq oshkor qilmaslik) vaqf tizimining samaradorligini cheklab, ayrim hollarda mablag' yetishmovchiligini keltirib chiqargan. Rossiya imperiyasi bosqinidan keyin Farg'ona vodiysiga nisbatan bosib olingan hududda rus ma'muriyati bevosita ta'lim muassasalarini yopish o'rniga, vaqf tizimini nazorat ostiga olish hamda qisqartirish orqali bilvosita ta'sir ko'rsatish siyosatini amalga oshirdi. Mahalliy ta'lim muassasalarini ro'yxatga olish, vaqf hujjatlariga qat'iy yuridik talablar qo'yish, yangi vaqflarni general-gubernator ruxsatisiz qilish, mutavallilarga nazorat o'rnatish kabi chora-tadbirlar vaqf tizimini asta-sekin an'anaviy mustaqil iqtisodiy mexanizm sifatidan chetlatib, rus ma'muriyatining ta'limga nazoratini kuchaytirgan. Natijada, ilgari vaqf daromadlari hisobiga nisbatan mustaqil faoliyat yuritayotgan maktab va madrasalar o'z moddiy barqarorligini yo'qotdi, ta'lim sifati, mutaxassislarining ijtimoiy mavqei va ta'lim qamrovi pasaydi. Bunda ham, an'anaviy ta'lim tizimi o'z mohiyatini to'liq yo'qotmagan, lekin yangi mustamlaka sharoitida nazorat va cheklovlar doirasida qisman funktsionallikni saqlashga harakat qildi. Shunday qilib, vaqf tizimining izdan chiqishi Qo'qon xonligi davridagi an'anaviy ta'lim tizimiga tub ta'sir qilgan, ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini buzgan va ularning ijtimoiy obro'si hamda rag'batning susayishiga olib kelgan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omil sifatida baholanadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Alixojiyev M.O. Qo'qon xonligining madaniy hayotida maktab va madrasalarning tutgan o'rni (1800-1876 yy.) (Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya) - Toshkent, 2012.
2. Azimbayev M. Turkiston general-gubernatorligidagi madrasalar tarixiga doir. // O'zbekiston tarixi. – 2015. – №4.
3. Ergashev T.E. O'rta Osiyoda mustamlaka siyosati va ta'lim. // O'zbekiston tarixi. – 2001. – №3.
4. Sartori P. Visions of Justice: Shari'a and Cultural Change in Russian Central Asia. – Leiden: Brill, 2016
5. G'ulyamov Z. Xonlik davrida vaqf mulki va ta'lim muassasalari // O'zbekiston tarixi. – 2007. – №2.
6. Xasanov B. Vaqf hujjatlari va madrasa iqtisodi // O'zbekiston tarixi. – 2016. – №3.
7. Махмудова Н. Б. Система мусульманского образования в Туркестанском крае и ее отражение в материалах отчетов ревизии сенатора К.К. Палена // Вухоро Davlat universiteti ilmiy axboroti, 2014. № 1 (53).
8. Остроумов Н.П. Исламоведение. Туркестан и эго история. – Ташкент: Изд-во Турк. кружка любителей археологии, 1914. – С. 112
9. Большаков О.Г. Вақф // Ислам. Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991.